



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD IBN UMARSHAYX
MIRZO BOBURNING HARBIY YURISHLARI**

Daripov Shahobiddin Isroiljonovich

Turg’unov Jaxongir Mamurovich

Central Asian Medical University

Xalqaro tibbiyot universiteti o‘qituvchilari

Kalandarova Himoyatxon Mahmudjon qizi

Otaboyeva Nafisaxon Iqboljon qizi

Camu talabalari

Annotatsiya: ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda olib borgan harbiy yurishlari va uning natijalari haqida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy yurishlar, siyosiy parokandalik, og‘ir iqtisodiy tanglik, ocharchilik, to‘xtovsiz janglari, harbiy strategiya, taktika.

Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan. O‘sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo‘q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g‘urur, iftixor, aql-zakovat.[1]

Bobur, yoki to‘liq ismi bilan Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida dunyoga kelgan, o‘zining hayoti va faoliyati bilan juda katta tarixiy ahamiyatga ega. Uning ilmiy va siyosiy merosi ko‘p jihatdan chuqur o‘rganilishi lozim. Boburning hayoti va saltanati o‘z davrining murakkab siyosiy va harbiy holatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u shuningdek, Markaziy Osiyo tarixining muhim shaxslaridan biridir.[2]



U 11 yoshida, otasi vafot qilgach, taxtga o'tirgan. Bobur dastlab o'zining kichik hududlarida ustunliklarini saqlab qolishga intildi, ammo boshqa temuriy hukmdorlar bilan bo'lgan urushlar tufayli o'z taxtini tez-tez yo'qotdi. Samarqand, Temuriylar saltanatining markazlaridan biri bo'lgan, Bobur uchun juda katta ahamiyatga ega edi. U o'zining bolalik davridan boshlab, Samarqandni qaytarish va bu shaharni boshqarish orzusida bo'lgan. Samarqandni egallash uchun u bir necha bor janglar olib bordi, lekin Samarqandni to'liq qo'lga kiritish faqat qisqa muddatga nasib etdi. Bu janglarda Bobur o'zining jangovar salohiyatini va harbiy strategiyalarini namoyish etdi, biroq Samarqandni qaytarish uning uchun doimiy ravishda muammo bo'lib qoldi.

Bobur, o'zining yoshligi va hukmronlik tajribasining cheklanganligiga qaramay, o'z taxtini saqlash uchun doimiy kurashda bo'lgan. Aslida, Boburning siyosiy kurashi faqat tashqi dushmanlarga qarshi emas, balki ichki fitnalar, o'zaro kurash va o'z hududidagi ko'plab raqiblarni yengishdan iborat edi. Boburning dastlabki yillari o'ta murakkab va xavfli bo'lgan. Uning hukmronligi davrida, ko'plab beklar, amaldorlar va hokimlar, Boburga bo'ysunishni rad etib, o'z manfaatlarini ta'minlash uchun ko'p bor uning qarshisiga chiqishdi. Boburga qarshi fitnalar uyushtirildi, ba'zi amirlar uni jismonan yo'qotishga harakat qilishdi. Uning ukalari ba'zan uning qarshisida turib, turli siyosiy ittifoqlarni yaratishga urinishgan. Bu holat, Bobur uchun o'z hukmronligini mustahkamlash va siyosiy nuqtai nazardan o'z qudratini oshirishga undadi.

[Movarounnahr](#) XV asr oxirida o'zaro nizolashayotgan temuriy [shahzodalar](#) yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pdan ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilar [mustaqillikka](#) da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shilib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish [Sulton Ahmad Mirzo](#) bilan [Sulton Mahmudxon](#) xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3-yilida mavqeini mustahkamlash, bek va



amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bobur uchun Samarqandning alohida ahamiyati bor edi. Bu shaharning strategik va geografik jihatdan Movarounnahr uchun naqadar muhim bo'lishi, Boburning siyosiy maqsadlarini shakllantirishda katta rol o'ynadi. Samarqand, Amir Temurning poytaxti bo'lib, uning saltanati va madaniyati bilan bog'liq edi. Bobur, Movarounnahrda markazlashgan, kuchli va barqaror davlatni tiklashni maqsad qilgan. U Amir Temur merosini saqlash va bu hududda markazlashgan davlat qurishga intildi.

Bu paytda, qisqa muddat ichida [Samarqand](#) taxtiga uchinchi hukmdor kelgan edi. [Sulton Ahmad Mirzo vafot](#)idan keyin taxtga o'tirgan [Sulton Mahmud Mirzo](#) Samarqandda davlatni 5-6 oydan ortiq idora etmadi, qisqa muddatli [kasallik](#)dan so'ng vafot etdi. Uning o'rniga [Buxoroda](#) hokim bo'lgan o'g'li [Boysung'ur](#) o'tiradi. 1495-1496-yillarda Bobur Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. [1497-yil kuzida](#) u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqandni egallaydi, [Boysung'ur Qunduzga](#) qochadi. [Shahar qamal](#) tufayli nihoyatda og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Hatto ekkulik [don](#) ham topish mushkul edi. Bobur [qo'shinni](#) ta'minlashda katta qiyinchiliklarga duch keldi. [Navkar](#)laridan ayrimlari [Andijon](#) va Axxi tomon qochib ketadilar. Buning ustiga Andijonda qolgan ayrim beklar Boburdan yuz o'girib, uning ukasi [Jahongir Mirzo](#) tarafiga o'tadilar. Andijondan ko'ngli notinch bo'lgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga uchragan, ayni zamonda og'ir xastalikni boshidan kechirgan Bobur Samarqandni yuz kun idora etgandan so'ng, uni tark etishga qaror qiladi, ammo [Xo'jandga](#) yetganda Andijon ham qo'ldan ketib, [muxoliflar](#) ixtiyoriga o'tganini eshitadi. Boburning [Toshkent](#) hokimi, tog'asi [Mahmudxon](#) ko'magida Andijonni qayta egallashga urinishi natija bermaydi. Bu muvaffaqiyatsizlik Bobur qo'shiniga salbiy ta'sir etib, ko'pchilik [bek](#), navkarlar Boburni tark etadi. O'ziga sodiq 200-300 kishilar bilan qolgan Bobur ma'lum muddat Xo'jandda turgach, Toshkentga Mahmudxon huzuriga kelib, Andijonni qaytarib olish [rejasini](#) tuza boshlaydi. Ma'lum muddat o'tgach, Bobur Xo'jandga qaytadi, ko'p o'tmay, [Marg'ilonni](#) qo'lga kiritadi hamda Andijonni egallash



tadbirlarini ko'radi. Nihoyat, 2 yildan so'ng [1498-yil iyun](#) uni qayta qo'lga kiritadi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan [sulh](#) tuzib, uning ixtiyorida Xo'jand suvining Axxi tarafi viloyatlarini qoldiradi, Andijon tarafi viloyatlarini o'z tasarrufiga oladi.

Temuriylarning o'zaro urushlari kuchaygan kezlarda [Shayboniyxon Movarounnahrni](#) istilo qilishga kirishadi. U [1499-yil Jizzax](#) va [Samarqand](#) orqali [Qarshi](#) va [Shahrisabzgacha](#) bostirib boradi, katta [o'lja](#) bilan [Dashti Qipchoqqa](#) qaytadi. Oradan ko'p o'tmay, katta kuch bilan [Movarounnahrqa](#) qaytgan [Shayboniyxon Buxoro](#) va [Qorako'lni](#) egallaydi ([1499-yil](#)), [Sulton Ali Mirzo](#) kaltabinlik bilan [Samarqandni Shayboniyxonga](#) jangsiz topshiradi ([1500-yil](#)), biroq shahar [aholisi](#) va zodagonlarining ma'lum qismi temuriylar hukmdorligini tiklash tarafdori edi. Ular [Farg'ona](#) hokimi Boburga [maktub](#) yo'llab, Samarqandni ishg'ol qilishga da'vat etganlar. Bobur [1500-yil](#) kech kuzida 240 kishilik qo'shini bilan Samarqandga yetib kelgach, aholi unga peshvoz chiqib, shahar [darvoza](#)larini ochib beradi. Shayboniyxonning shahar himoyasi uchun qoldirgan 600 nafar [askari](#) qirib tashlanadi. Shayboniyxon Buxoroga chekinadi. Qisqa vaqt ichida Samarqandning barcha tumanlari, [Qarshi](#) va [G'uzor](#) shaharlarida Bobur hokimligi e'tirof etiladi, ammo shaharda [oziq-ovqat zaxiralari](#) tugab, ocharchilik boshlangan edi. Bundan xabar topgan Shayboniyxon katta kuch to'plab, yana Samarqandga yurish boshlaydi. [1501-yil aprelda Zarafshon](#) bo'yidagi [Saripul](#) qishlog'i yaqinida bo'lgan jangda Bobur qo'shinlari yengiladi. Bobur Samarqandga chekinadi. Shahar yana qamal qilinib, u to'rt oy davom etadi. Qamalda qolgan shahar aholisining ochlikdan tinkasi quriydi, Bobur [1501-yilning](#) 2-yarmida noilojlikdan Samarqandni tark etib, Toshkentga, Mahmudxon huzuriga yo'l oladi.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. [1503-yil](#) Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va [qalmoqlarning](#) birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan [Sirdaryo](#) bo'yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton [Ahmad](#)



[Tanbal](#) egallab oladi. 1501–1504-yillarda Bobur Fargʻona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolariga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning toʻxtovsiz janglari va ogʻir [solliqlaridan](#) toliqqan xalq Boburni qoʻllamadi va u Movarounnahrni tark etishga majbur boʻladi.

Bobur Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyatni diqqat bilan kuzatgan va oʻz qoʻshinlarini har doim tayyor holatda tutgan. U juda murakkab va oʻzgaruvchan siyosiy vaziyatda yashab, koʻplab urushlar va janglarda qatnashgan. Boburning 1510-yillarda boshlangan harbiy harakatlari va siyosiy ittifoqlari uning tarixiy shaxs sifatida rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Xususan, u Shoh Ismoil Safaviy bilan tuzgan ittifoqi va shayboniylarga qarshi olib borgan harbiy yurishlari bilan ajralib turadi.

Shayboniyxonning Xurosonning yirik markazlarini qoʻlga kiritishi, ularning Eronni zabt etish maqsadi bilan yurgan harbiy yurishi, regiondagi siyosiy holatni keskinlashtirdi. Shayboniyxon, Eronni zabt etish maqsadida yurish boshladi, ammo u Shoh Ismoil Safaviyga qarshi kurashda yengildi va Marvda halok boʻldi. Bu holat Xuroson va Movarounnahrning siyosiy ahvolini yanada notinchlashtirdi. Shoh Ismoil Safaviy esa bu vaziyatdan foydalanib, oʻz qoʻshinlarini Xuroson va Movarounnahrda yuborib, shayboniylarga qattiq zarar yetkazdi.

Bobur, Shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzish orqali bu inqirozdan foydalanishga harakat qildi. U 1511-yilda Hisorni, yozda Buxoroni va 1511-yilning oktabrida Samarqandni qaytarib olishga muvaffaq boʻldi. Shoh Ismoil bilan tuzilgan ittifoq Boburga Xuroson va Movarounnahrda hukmronligini qayta tiklashda yordam berdi. Ammo, Boburning shia yoʻnalishidagi eroniyalar bilan ittifoq tuzishi, Movarounnahr va Xuroson aholisi orasida norozilikni kuchaytirdi. Bu esa uning hukmronligini yanada qiyinlashtirdi.

1512-yilda Boburning oʻzi bir qator magʻlubiyatlarga uchradi. 28-aprelda, Koʻli Malik jangida, Ubaydulla Sulton boshchiligidagi shayboniylarga qarshi yengildi. Natijada, Bobur Hisor tomon ketishga majbur boʻldi. Soʻngra, 1512-yil kuzida Bobur, Shoh Ismoil yuborgan lashkarboshi Najmi Soniy bilan uchrashib, Amudaryodan oʻtdi, Gʻuzor qalʼasini



egalladi, Qarshiga yurish qildi va shaharni uzoq muddatli qamaldan so‘ng qo‘lga kiritdi. Biroq, G‘ijduvon jangida 1512-yil 24-noyabrda yana shayboniylardan mag‘lubiyatga uchradi. Bu mag‘lubiyat Boburni Kobulga qaytishga majbur qildi va uning Movarounnahrni qayta egallash orzulari nihoyat so‘ndi.

Bobur Hindistonga yurishini 1519-yil bahorida boshladi va 1525-yilgacha uning rejalarini amalga oshirishga tayyorlandi. Bu davrda, Boburning siyosiy maqsadi Hindistonda kuchli va mustahkam bir hukmronlik o‘rnatish edi. Hindistondagi yirik davlatlarning siyosiy beqarorligi, ichki nizolar va maqsadga erishish uchun imkoniyatlar Bobur uchun qulay sharoit yaratdi. 1525-yilda, 12 ming askari bilan Hindistonga yurish boshlagan Bobur o‘zining markaziy raqiblari bilan qattiq kurashlarga kirishdi.

1526-yil aprelda, Panipat jangida Bobur o‘zining asosiy raqibi, Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy bilan to‘qnashdi. Ibrohim Lo‘diyning qo‘shinlari taxminan 100 000 kishidan iborat edi, ammo Bobur o‘zining 12 ming askari bilan bir qator strategik harakatlar va jangovar taktikalari yordamida ularga qarshi muvaffaqiyatli jang olib bordi.[3] Panipatdagi g‘alaba Bobur uchun juda muhim bo‘ldi, chunki bu jang uning Hindistondagi eng muhim poytaxtlardan biri bo‘lgan Dehlini qo‘lga kiritishiga imkon berdi. Oradan ko‘p o‘tmay, Boburning harbiy yurishlari davom etdi va 1527-yilda u Shimoliy Hindistondagi ikkinchi yirik sarkarda Rano Sango ustidan g‘alaba qozondi. Rano Sango Hindistondagi ko‘plab hind sarkardalari bilan ittifoq tuzgan edi, ammo Bobur uni ham yengib chiqdi. Bu g‘alaba Boburga Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo‘lgan qismini o‘ziga bo‘ysundirish imkonini berdi.[4]

Bobur Dehlini egallaganidan so‘ng, Agrani o‘ziga poytaxt sifatida tanladi. Agraning poytaxt sifatida tanlanishi, Boburning Hindistonda o‘z hukmronligini mustahkamlash va bu yerda keng miqyosdagi qurilish va obodonchilik ishlarini boshlashiga turtki bo‘ldi. Bu ishlar, Bobur tomonidan qurilgan markaziy boshqaruv tizimining asosi bo‘lib, u Hindistondagi qudratli va barqaror hukmronlikni ta‘minlashga yordam berdi. Boburning Hindistondagi muvaffaqiyatlari natijasida, u Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bobur Hindistonning siyosiy xaritasini o‘zgartirib, butun hududda hukmronlikni qo‘lga kiritdi.



Uning shohligi Hindistonda uch yarim asrga yaqin davom etgan qudratli va nufuzli Boburiylar sulolasining poydevorini tashkil etdi. Bobur o‘zining siyosiy va harbiy maqsadlariga erishib, Hindistonda mustahkam davlatni qurdi, bu esa uning tarixiy merosini yanada mustahkamladi.

Bobur Hindistonga yurish qilganida, u faqat bir necha yirik janglar orqali emas, balki murakkab harbiy strategiyalar va taktikalar orqali ham muvaffaqiyat qozondi. Uning Panipatdagi g‘alabasi, keyinchalik Rano Sango ustidan qozonilgan g‘alabalar va Agrani poytaxt sifatida tanlashi uning Hindistonda hukmronlik qilishga qaratilgan harbiy, siyosiy va madaniy ishlarining dastlabki bosqichlarini tashkil etdi. Bobur Hindistonda Boburiylar sulolasining poydevorini yaratib, bu yerda uch yarim asr davomida qudratli bir hukmronlikni o‘rnatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlis Senatining yangi tarkibdagi ilk majlisida so‘zlagan nutqidan. 2020.
2. Voxidov Rahim. Biz bilgan va bilmagan Bobur. –Toshkent: Ma’naviyat. 1999. 15 b
3. N.G‘.Nizomiddinov. Buyuk boburiylar tarixi (XVI-XIX asr). Monografiya. -T .: «Fan va texnologiya», 2012 76 b
4. Mirmaxmud Mirsaydullayev. Boburning kasallik tarixi. –Toshkent MUMTOZ SO‘Z, 2013 10 b
5. Zahridin Muhammad Bobur. Nashrga tayèrlovchi: Porso Shamsiyev BOBURNOMA. Toshkent “Yulduzcha” 1990 yil
6. Hasan Qudratullayev. “BOBURNOMA” ASRORI KALITI. “Marifat” gazetasi 2008